

**O‘QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH:
TAJIRIBA, BAHOLASH VA TAHLIL XUSUSIDA**

p.f.d., professor M.B.Artikova
ADPI Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani,

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmasini rivojlantirishning dolzarbligi, rivojlanganlik darajasini baholash masalalari, o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga doir tavsiyalar xususida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: tadbirkorlik, ko‘nikma, umumta’lim maktabi, baholash, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat, qobiliyat, motivatsiya, mustaqillik.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность развития предпринимательских навыков у учеников, вопросы оценки уровня развития, рекомендации по дальнейшему развитию предпринимательских навыков у учеников.

Ключевые слова и фразы: предпринимательство, навыки, средняя школа, оценка, социально-экономическая деятельность, способности, мотивация, самостоятельность.

Annotation. This article discusses the importance of developing entrepreneurial skills in pupils, issues of assessing the level of development, recommendations for the further development of entrepreneurial skills in pupils.

Key words and phrases: entrepreneurship, skills, secondary school, assessment, socio-economic activity, abilities, motivation, independence.

Tadbirkorlik ko‘nikmasi – ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik sohasida ma’lum tajribaga ega bo‘lish, faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ko‘ra bilish va bartaraf etish, innovatsion g‘oyalarni izlash va o‘ylab topish, topshiriqlarni bajarish jarayonida qat’iy intizomga rioya qilish va uddaburonlik, shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish layoqati yig‘indisidir.

O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmasini rivojlantirish – innovatsion g‘oyalarni izlab topish va amalga oshirish, nostandart vaziyatlarga moslashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, tashqi ta’sirlarga o‘zining shaxsiy fikri bilan qarshi tura olish, javobgarlik va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, aksiologik munosabat, faoliyatga tayyorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, moddiy mahsulotlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, qo‘yilgan maqsadga erishishdagi qat’iylik, ishga uddaburonlik bilan yondashish, tashkilotchilik, kommunikativlik, ijodiylik, boshqaruvga doir sifat va xususiyatlarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan tizimli jarayon.

“O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish” tushunchasining mazmuni (psixologik, intellektual va jarayonga doir) va o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash tizimidan kelib chiqqan holda ularning mazkur faoliyat turiga shaxsiy tayyorgarligini baholash mezonlarini aniqlashtirish lozim.

Manbalar tahlili va izlanishlar natijasida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarining rivojlanganligini baholashning psixologik mezonlari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi:

- shaxsning tadbirkorlik faoliyatiga yo‘nalganligi;
- tadbirkorlik faoliyatiga qobiliyatlilik;

- tadbirkorlik faoliyatiga motivatsiyaning mavjudligi va qiziqishlari darajasi;
- mustaqillik.

Mazkur sanab o‘tilgan mezonlar orasida boshqa faoliyat turlari singari tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda motivatsiya asosiy rol o‘ynaydi. Shaxsiy motivlar har bir o‘quvchi uchun xos bo‘lib, ichki va tashqi vaziyatlar bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Ana shu sababli o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda uning shaxsiy motivlarini tushunish va ongli ravishda oshirib borish muhim. Kutilgan natijaga erishish maqsadning aniq belgilanishiga bog‘liq. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchida amaliy faoliyat jarayonida yordam beruvchi o‘quv materiallari uning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi. O‘quvchining faoliyatga nisbatan motivatsiyasi ichki yo‘nalganlik bilan bog‘liq bo‘lib, u introvert motivatsiya deyiladi. Buning aksi hisoblangan ekstravert, ya‘ni tashqi motivatsiya maqsadning qo‘yilishi bilan bog‘liq. Agar tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda mazkur motivatsiya turlarining uyg‘unligi ta‘minlansa, kutilgan natijaga erishish mumkin.

O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda motivatsiyaning o‘rni haqida gap ketar ekan, albatta, bu jarayonda o‘quvchida ma‘lum bir faoliyat turiga nisbatan ehtiyojning mavjudligini ham aniqlash talab etiladi. Ehtiyoj ichki motivlarning tadbirkorlik faoliyatiga yo‘nalganligi bo‘lib, uning asosiy ko‘rsatkichi sifatida amaliy faoliyatda ishtirok etishga intilish xizmat qiladi.

O‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatiga qobiliyati innovatsion g‘oyalarni o‘ylab topish va uni amalga oshirish ko‘nikmalari orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur mezon ko‘rsatkichlariga g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, nostandart vaziyatlarga moslashtirish ko‘nikmasini kiritish mumkin.

Mustaqillik – ma‘lum bir xatti-harakatlarni amalga oshirish va mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish. “Mustaqillik” tushunchasi o‘zida qator xususiyatlarni aks ettiradi: o‘z-o‘zini nazorat qilish, tashqi ta‘sirga o‘zining shaxsiy fikri bilan qarshi tura olish ko‘nikmasi, javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati.

O‘quvchilardagi mustaqillikni tashxis etishda ularning yosh xususiyatlari, diagnostik faoliyatni tashkil etish shakllari (individual tekshirish, o‘yin vaziyatlari, guruhiy ish). O‘quvchilardagi mustaqillikni aniqlash anketa, test, o‘yin vaziyatlari, modellashtirish yordamida amalga oshiriladi. O‘quvchilardagi mustaqillikni tashxis etish metodikasi S.Grinshpun tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, quyidagi komponentlari aniqlashtirilgan:

1. Shaxsning o‘z xatti-harakatlarini amalga oshirishdagi ma‘naviy-axloqiy yetukligi:

- amalga oshirilayotgan xatti-harakatning hayotiyliigi, ijtimoiylik nuqtai nazaridan mumkinligi va axloqiy nuqtai nazardan to‘g‘riligiga ishonchning mavjudligi;
- shaxsiy-munosabat qadriyatlarini.

2. Kompetentlilik – ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni egallanganlik, mehnat faoliyatiga tayyorlanganlik:

- kommunikativ ko‘nikmalar – insonlarni tushunish, ular bilan muloqot va hamkorlik;
- ijodkorlik – ishga ijodiy munosabat, oldindan ko‘ra bilish, yangilikni his etish;
- qaror qabul qilish ko‘nikmasi – axborotni tahlil etish va qayta ishlash jarayoni.

3. O‘z-o‘zini nazorat qilish – o‘z faoliyatini nazorat qilish darajasi. Nazorat ijtimoiy muhitning ob‘ektiv shartlari va talablariga muvofiq ravishda o‘zining sifatleri va ehtiyojlarini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan. Bu esa mustaqillikni uch jihat bilan bog‘liqlikda

kompleks o‘rganishga imkon beradi: aksiologik munosabat, faoliyatga tayyorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish.

4. Intellektual mezonlar – o‘zida tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslari va kategoriyalarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni egallaganlik darajasi. Mazkur mezon o‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatiga ilmiy jihatdan tayyorligini baholash, iqtisodning umumiy qonunlari va tamoyillari, tadbirkorlik faoliyatiga doir huquqiy normalarni qo‘llay olish ko‘nikmasini aniqlab beradi.

5. Jarayonga doir mezonlar – tadbirkorlik faoliyatiga muvaffaqiyatli yo‘nalganlik va ishtirok etishga yordam beruvchi ko‘nikmalar majmuidir. Jarayonga doir komponentni baholash uchun quyidagi ko‘nikmalar aniqlandi: tashkilotchilik, kommunikativlik, ijodiylik, boshqaruvga doir.

Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy ko‘nikmalari quyidagi ko‘rsatkichlarga asoslangan holda baholanadi: faoliyatni rejalashtirish, tashabbuskorlik, liderlikka intilish, obro‘ orttirish, rejalashtirilgan natijalarga erishishga intilish, mas’uliyatni to‘liq anglash, ishni oxiriga yetkaza olish ko‘nikmasi.

Kommunikativ ko‘nikmalar quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi: muloqotga ehtiyoj, samimiy munosabat, muloqotga kirishish, jamoatchilik ishlarida ishtirok etish, shaxsiy qiziqishlarini jamoa manfaatlariga bo‘ysundira olish, tajriba almasha olish, kishilar orasida bo‘lish istagi.

Ijodkorlik ko‘nikmalarini baholashga doir quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlashtirildi: topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, ishlab chiqarish materiallari va vaqtdan oqilona foydalani olish, ixtirochilikka intilish, yasash va tuzishga qobiliyatlilik, vaqtning tig‘izligi sharoitida ishlay olish ko‘nikmasi.

Boshqaruvga doir ko‘nikmalar quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi: boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish va noma’lumlik sharoitida muammolarni hal etish qobiliyati, zaruriy axborotlarni o‘zlashtirish va unga qo‘shimchalar kiritish ko‘nikmasi, xavf-xatar va hisob-kitobdagi uyg‘unlikni ta’minlay olish ko‘nikmasi, jamoa a’zolari orasida vazifalarni taqsimlay olish, qabul qilingan qarorlarning bajarilishi nazorat qilish, faoliyat jarayonida yuzaga keladigan salbiy holatlarning ko‘ra bilish va oldini olish qobiliyati.

O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarining shakllanganligini baholash quyidagi darajalarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim:

– yuqori daraja – o‘quvchilar tadbirkorlik faoliyatining zarurat ekanligini yaxshi anglaydi, tashkilotchilik faoliyati tez-tez namoyon bo‘ladi, ishlarni rejalashtirishda ishtirok etadi, tadbirkorlik faoliyati natijalarini tahlil eta oladi, ijodiy ko‘nikmalarni talab etadigan sharoitda ishlash tajribasiga ega, o‘zining amaliy faoliyatida bevosita bilimlarni qo‘llay oladi;

– o‘rta daraja – o‘quvchilar tadbirkorlik faoliyatining zarurligini anglaydi, ishda shaxsiy tavsifdagi motivlar ustun turadi, ishni muvaffaqiyatli bajara oladi, tadbirkorlik faoliyati natijalarini jamoaviy tahlil etishda ishtirok etadi, biroq bu jarayonda tashabbuskorlikni namoyon etmaydi, o‘z fikrlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladi, hamma vaqt ham bilimlarini amalda qo‘llay olmaydi, maslahatchi yordamida o‘z faoliyatini rejalashtiradi va tashkil etadi;

– past daraja – o‘quvchilar tadbirkorlik faoliyatining zarurligini anglaydi, biroq mustaqillik va qiziquvchanlikni namoyon etmaydi. Topshiriqlarni nazorat ostida bajaradi, faoliyatni takomillashtirishga doir takliflar kiritmaydi, ish jarayonida boshqalarning

takliflaridan foydalanadi, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanmaydi, ishni oqilona tashkil etishda qiyinchilikni his etadi, belgilangan vaqt oralig‘ida topshiriqni bajarishning uddasidan chiqmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, manbalar tahlili va tajribalarga tayangan holda o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga doir quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Bolani yoshlikdan moddiy ne‘matlarga nisbatan tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ular inson mehnatining mahsuli ekanligi va uni asrab-avaylashga o‘rgatib borish lozim.

2. Bolaga mavhum, erishib bo‘lmaydigan vazifalarni rejalashtirmaslik, biznesda muvaffaqiyatga erishish – aniq maqsadlarni qo‘ya bilish qobiliyatiga bog‘liq ekanini tushuntirish lozim.

3. Shaxsiy pul va moddiyliklarni maqsadli sarflashga tayyorlik ko‘p jihatdan bolaning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, bunda o‘z harajati hamda daromadlarni muntazam ravishda sarhisob qilishni o‘rganish lozim.

4. Iqtisodiy bilim shaxsning nafaqat o‘zi va oilasiga, ayni paytda xalqning farovonligini ta‘minlashga ham xizmat qiladi. Bolaga yoshligidan iqtisod, kirim-chiqim, daromad va harajatga doir tushunchalarni berib borish lozim.

5. Bola o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Ijodkorlik qobiliyati ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanadi. Bolaning ijodkorligi uning tafakkurida, zehnidagi, muloqotida, xis-tuyg‘ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

6. Tajribadan ma‘lumki, tashabbuskorlik – tirishqoqlik – o‘z kuchiga ishonish muvaffaqiyatli biznesmenlar faoliyatida samarali natija bergan. Tashabbuskorlik – yangi g‘oyalarga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatish, faoliyat mahsulining nafaqat o‘zi, oilasi, balki jamiyat uchun foydaliligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Баженова С. Легко ли быть молодым предпринимателем? // Технология дела, 2012. - № 7-8. – С. 34-38.
2. Ходжаев Б. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлашни шакллантириш йўллари / Услубий қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2008. 90-б.
3. Гриншпун С.С. Оценка личностно-делового потенциала учащихся в профориентационной работе / С.С.Гришпун // Школа и производство. – 1994. - № 6. – С. 11.